



**TALIM SOHASINI BOSHQARUV FAOLIYATIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH
IMKONIYATLARINI ANIQLASH**

Abdullayev Dilshodbek Xusanboy ògli

Namangan Davlat universiteti

Ta'lim menejment yònaliishi magstiratura 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rghanish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Ushbu maqolada Talim sohasini boshqaruv faoliyatida samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, jamiyat, demokratiya, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, huquqiy soha, ta'limda samaradorlik va h.k.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya uzliksiz, muayyan maqsadga yo`naltirilgan jarayon bo`lib, unda barkamol shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Demak, pedagogik jarayonning asosiy maqsadi barkamol inson shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Maktabga endigina qadam qo`ygan bola uchun maktab g`aroyib maskan, o`qituvchi esa eng mehribon va bilimdon inson bo`lib tuyuladi. Qalbi quvonchga to`lib turgan murg`ak qalb "Men, albatta yaxshi o`qiymen!", "Ustozim, hammadan ham meni ko`proq yaxshi ko`radilar!" degan ichki bir havas bilan xursand bo`lib, ko`zingizga qarab o`tiradi. Shu tobda uning hayolidan "Men hammadan orqada qolib o`qiymen" degan salbiy fikr o`tmaydi, albatta. Biroq o`quv mashg`ulotlari boshlangach, ko`zlarida anashunday sevinch porlab turgan o`quvchilarning hammasi ham o`qishga layoqati bir xilda emasligi bilina boshlaydi. Bu holatni o`quvchilarning o`zları ham sezadilar. Seza boshlaganlari sayin o`zlarida tortinish, uyalish, kamsuqumlik xislatlari kuchaya boradi. "Kitobdagiday gapira olmasamchi", "Aytadigan fikrimda xato bolsachi, ustozimdan dakki eshitaman, do'stlarim oldida uyalib qolaman" degan hadik bola fikrini erkin bayon etishiga yo'l qo`ymaydi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.



Shu bilan birga, ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

- PIRLS – boshlang’ich 4-sinf o’quvchilarining matnni o’qish va tushunish darajasini baholash;
- TIMSS – 4- va 8-sinf o’quvchilarining tabiiy-ilmiy yo’nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;
- TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’qitish va ta’lim olish muhitini hamda o’qituvchilarning ish sharoitlarini o’rganish;
- PISA – 15 yoshli o’quvchilarning o’qish, matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

O`qituvchini ma’ruzaga texnologik va metodik jihatdan tayyorlash, aqliy rivojlanish, o`qitishni faollashtirish, yangi o`qitish texnologiyasi bilan qurollantirish jarayoni uzoq va tinimsiz izlanishlarni talab etadi. O`qituvchi har bir asar matni yuzasidan darslikda berilgan savol-topshiriqlar yordamida o`quvchining har birini o`z darajasida fikrlashga, hayotiy haqiqatni asar tahlili davomida o`zi kashf etishiga imkon yaratish kerak. Darsda o`qituvchi yo`li o`quvchi tomonidan mantiqning qayta hikoyalanish hollari, ya’ni takrorlash usullari ham bo`lishi mumkin. Bunday usulb ilimni mustahkamlashga yordam beradi. Hikoyalash qayta-qayta takrorlanaversa o`quvchilarning ba’diga tegadi. Inson ezgu niyatlari, orzularini yozuvchi iste’dod va talanti orqali ifodalab ro`yobga chiqaradi. Uni shundayligicha o`quvchi qalbiga yetkazish o`qituvchi mahoratiga bog`liq. Demak, o`qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil qilishi uchun nafaqat bilimli, balki pedagogik mahorat va pedagogik texnikani yaxshi egallagan bo`lishi lozim. U o`quvchiga qachon va qanday ta’sir o`tkazishni bilishi, shu bilan birga ozroq kuch sarflab, ko`proq natijaga erishish yo’llarini izlashi lozim. Savol berish ham bir san’at bolib, o`qituvchi buni chuqur anglashi va o`quvchilarga ham singdirishi lozim. Jo`yali savolga qandaydir tushunib yetilmagan teranlik bo`lib, o`quchilarni izlanishga, asar mutolaasiga chorlaydi. O`zaro hamkorlik pedagogikasi o`qituvchi va o`quvchi orasida hamfikrlilik, ishonch, o`zaro yordam, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa o`z navbatida, yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyatlarni anglash va e’tirof etishni kafolatlatlaydi. Boshlang’ich sinf o`quvchilariga ta’lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o`qituvchining g`oyaviy e’tiqodi, kasb mahorati, san’ati, iste’dodi, ijodiy faoliyati va madaniyatiga hal qiluvchi darajada bog`liqdir. Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir o`qituvchi, eng avvalo, tashkil qilinadigan darsning mazmunini chuqur o’rganishi, uning natijalariga jiddiy e’tibor berishi va bu bilan o`quvchi shaxsiga ijobiy ta’sir etishga intilmog`i, Vatanga muhabbat, milliy g`urur, Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo’llarini izlamog`i lozim.

«Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili» davlat Dasturida ko‘zda tutilgan 30 ta yangi maktab qurish, 320 ta mакtabni ta’mirlash va moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida byudjetdan 2 trillion so‘m ajratilishi,



sohada yagona «elektron ta'lim» tizimini joriy etishga kelgusi 2 yilda 250 milliard so'm yo'naltirish, boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan o'qituvchilar oyligiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa - 100 foiz ustama haq to'lash kabi chora-tadbirlar sohadagi islohotlar samaradorligini ta'minlab beradi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Kontseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi. Hozirgi tez o'zgarib, tez rivojlanayotgan dunyoda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yosh avlodgina munosib o'rnini topa oladi. O'zbekiston aholisi tarkibida yoshlar 60 foizdan ko'proqni tashkil etadi. Yoshlarimizga yuksak mezonlar asosida ta'lim-tarbiya berish, ularga yangicha, innovatsion fikrlash qobiliyatini o'stirish bugungi kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir. Kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash bugungi dolzarb masaladir. Chunki, ilmdan maqsad faqat uni yod olish emas, balki uni idrok etish, tafakkur qilishdir. Kishida fikr bo'lsa, demak u mulohaza qilyapti, unda mushohada bor, u har qanday masalani tahlil va talqin qila oladi, nima yaxshi, nima yomonligini teran ko'z bilan ko'ra oladi. O'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurati ta'lim-tarbiya jarayonida nechog'lik ahamiyatga egaligini shundan ham bilsa bo'ladi.

Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida — sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti davlat rahbari sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, yetakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, respublikamizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg'unlashtirishga qaratganligi bejiz emas. Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog'liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi» ishlab chiqilishi, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko'plab qabul qilingan qarorlari,



farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e'tiborning amaliy ifodasi edi. Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ularning yutuqlarini yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish jarayonida intellektual mulkning ishonchli himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlarga ko'ra, intellektual mulk ulushi Yevropada yalpi ichki mahsulotning 45, Xitoyda 12, Rossiyada 7 foizini tashkil etadi. 2020 yilning 12 oktyabr kuni Prezidentimiz raisligida bo'lib o'tgan yig'ilish ham «Intellektual mulknini himoya qilish - Uchinchi uyg'onish davri uchun ishonchli poydevor bo'lib xizmat qiladi» mavzusiga bag'ishlangan edi. O'shanda davlatimiz rahbari patent egalari va tadbirkorlar o'rtaсидаги hamkorlikni ta'minlash zarurligiga alohida e'tibor qaratdi.

Hukumatimizning ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlari Namangan davlat universitetida ham izchil amalga oshirib kelinyapti. Xususan, keyingi uch yil ichida fakultetlar soni 9 tadan 15 taga, mutaxassislik kafedralari soni 27 tadan 46 taga, ta'lim yo'nalishlari soni 31 tadan 52 taga, magistratura mutaxassisliklari soni esa 12 tadan 26 taga yetkazildi. Bunga mos ravishda ilm istagida bo'lgan universitet talaba yoshlari soni 5 100 nafardan qaryib 21 000 nafarga yetdi. Professor-o'qituvchilar soni 470 nafardan 710 nafarga yetdi. Universitetda 2018-2019 o'quv yiliga qadar ilmiy salohiyat 26 foizni tashkil etib, biron ta ixtisoslik bo'yicha ixtisoslashgan kengash faoliyat olib bormagan. Keyingi yillarda ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor qaratilib, ilmiy salohiyat 37 foizdan oshdi, ta'lim sifatini ta'minlash yo'lida bugungi kunda 12 ta ixtisoslik bo'yicha 9 ta ixtisoslashgan kengash faoliyat olib bormoqda. Albatta, bu borada 17 ta tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar hisobidan universitet ilmiy-pedagog kadrlari saflarini salohiyatli kadrlar bilan to'ldirish maqsadi belgilab olingan. Yaqin-yaqingacha universitet asosan pedagogik soha uchun mutaxassislar tayyorlar edi. Bugungi kunda universitetda Arxeologiya, Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish, Sotsiologiya, Yurisprudentsiya (faoliyat turlari bo'yicha), Kutubxona-axborot faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha), Zooinjeneriya: baliqchilik, Mevachilik va uzumchilik, Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi, Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik, Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish, Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha), Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish, Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha), 2021 yildan boshlab esa Davolash ishi, Pediatriya ishi kabi yo'nalishlarda kadrlar tayyorlashni boshlaganligi oliygohimizni haqiqiy ma'noda viloyatimizning aql markaziga aylanayotganligidan dalolat beradi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh maqsadi zamonimiz davomchilarini intellektual va ma'naviy-axloqiy barkamol avlod ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Bilimli pedagog ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy usullarini darsning didaktik vazifasi va o'quvchilarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda tanlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshirish barobarida o'quvchilarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-



muhabbat, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Barcha sohalar asosida yotuvchi bosh g'oya ham tabiat va inson uzviyigini anglab yetadigan, avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, sabrbardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxs sifatlarini shakllantirishni ko'zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Komil ishonch bilan shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiya ta'limgarayoniga yangiliklarni olib kiruvchi asosiy manbadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan oliy ta'limgashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, shuningdek, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda Kengashlar vakolatlarining kengayayotgani ta'limgash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatli ta'limgash xizmatlarini ta'minlash va bu borada Prezident hamda hukumatimiz belgilab bergen vazifalarni to'la-to'kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Xalq ta'limi"jurnali 2011/5.
2. "Boshlang`uch ta'lim"jurnali 9.2009/sentabr.
3. "Yangi pedagogik texnologiya asoslari" (inter faoldarslar) Toshkent – 2007.
4. "Boshlang`ich sinf o`quvchilarini kasb-hunarga yo`naltirishning uslubiy asoslari" Toshkent – 2011
5. A.Nurmanov, I.Ikramov, F.Boynazarov "Yangi pedagogik texnologiya asoslari". T., Falsafa va xuquq instituti nashriyoti 2007
6. N.Sayidahmedov "Yangi pedagogik texnologiyalar". T., Moliya 2003
7. F.Yuldasheva "Logopedik mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish". T., 2019